
“AYOLLAR DAFTARI”: XOTIN-QIZLAR UCHUN IMKONIYAT



“Endi tikuvchilik qilib, oilamga daromad olib kiraman” deydi Gulafzal Soliyeva

Hayit bayrami arafasida sektor rahbarlari ishtirokida Qo’shtepa tumanida “Ayollar daftari”ning 5-bosqichiga olingan 30 nafar xotin-qizlarni bandligini ta’minlash maqsadida subsidiyaga tikuv mashinalari topshirilgan edi. Avval kasb-hunarga o’qitilib, bandligi ta’minlangan ayollarimiz hozirda o’z faoliyatlarini olib borishmoqda.

Shuni ta’kidlash joizki, bugun xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar ularni hayotda o’z o’rinlarini topishlari va munosib hayot sharoitida yashashlari uchun ulkan imkoniyat bo’lmoqda.

– Bu tikuv mashinasi biz ayollar uchun bayramga sovg’a bo’ldi, – deydi Namuna MFYda yashovchi Gulafzal Soliyeva. – Tikuvchilik qilishga ishtiyoqim baland edi. Lekin mana shunday zamonaviy tikuv mashinasini olishga qiynalayotgandim. Bugun esa mana orzuyim va maqsadimga erishib turibman. Endi tikuvchilik qilib, oilamga daromad olib kiraman. Buning uchun davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yo’lga qo’yilgan bunday xalqchil islohotlardan mamnunmiz, albatta.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-04-13 11:06:27